

---

## TOSHLOQ TUMANIDA YANGI MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MASKANI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi bayrami munosabati bilan Farg'ona viloyatida davom etayotgan "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostidagi "Ma'naviyat festivali" doirasida Toshloq tumanida yangi "Ma'naviyat va ma'rifat maskani"ni ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Prezidentimizning 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida barcha shahar va tumanlarda ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etish manzilli ro'yxati tasdiqlangan edi. Farg'ona viloyatida mazkur maskanlar soni yana bittaga ko'paydi.

Tuman markazida tashkil etilgan Ma'naviyat va ma'rifat maskanida barcha sharoitlar yaratilgan.

Jumladan, zamonaviy kutubxona, madaniyat, hunarmandchilik, tasviriy san'at hamda ijodkorlar xonasi tashkil etilgan. Binodagi ko'rgazmali targ'ibot vositalarida ma'naviy-ma'rifiy islohotlar mujassam etgan.

Ochilish marosimi davomida filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyev, O'zbekiston davlat xareografiya akademiyasi dotsenti, shoira Hulkar Hamrayeva va boshqalar ishtirokida "Ma'rifat soati" tashkil etildi.

2023-08-28 10:38:33